

2018 yil yanvar-oktyabr


Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida 1231,1 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 247,4 mln. AQSh dollarini va import 983,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi – 736,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,5 foizga oshib, qora va rangli metallar eksporti esa 66,4 foizga o'sdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 107,8 mln. AQSh dollarni tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 84,3 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirdorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida 871,4 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 189,2 mln. AQSh dollarini va import 682,2 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.





47,6 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 7,4 foizlik natija bilan qayd etildi.


Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagи ijobiy ko'rsatkichi (51,7 foiz) eksport hajmining yarmini tashkil etdi.

Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 47,6 foizini mashina va asbob-uskunalar, 19,5 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 12,2 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 48,4 foizni va safarlar xizmati 33,9 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni




2018 yil yanvar-oktyabr oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosi –736,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –132,7 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –603,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi
quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:**


| | <i>mln.dollar</i> | <i>o'tgan yilga nisbatan, %</i> | <i>umumiylajmga nisbatan, %</i> |
|--|-------------------|-------------------------------------|-------------------------------------|
| Eksport | 247,4 | 117,2 | 100 |
| paxta tolasi | - | - | - |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 127,9 | 114,4 | 51,7 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar | 4,7 | 78,5 | 1,9 |
| qora va rangli metallar | 8,8 | 166,4 | 3,6 |
| mashina va asbob-uskunalar | 18,4 | 180,5 | 7,4 |
| xizmatlar | 30,3 | 116,3 | 12,2 |
| boshqalar | 57,3 | 116,0 | 23,2 |
| Import | 983,7 | 145,8 | 100 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 135,5 | 185,1 | 13,8 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 192,1 | 108,5 | 19,5 |
| energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 5,2 | 2,9m | 0,5 |
| qora va rangli metallar | 72,8 | 2,5m | 7,4 |
| mashina va asbob-uskunalar | 468,1 | 145,2 | 47,6 |
| xizmatlar | 3,4 | 89,0 | 0,3 |
| boshqalar | 106,6 | 156,7 | 10,9 |

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda


MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 31,6 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 68,4 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.



Eksport



Import




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 107,8 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 127,0 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida

37,2 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 164,9 foizini tashkil qildi), 24,4 foizini mevalar (92,7 foizini), 33,0 foizini uzum (114,3 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 38,1 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (108,7 foizni) tashkil qildi.

Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 16,0 foiz), Rossiya (18,2 foiz), Vietnam (4,4 foiz), Xitoy (12,8 foiz), Turkiya (10,0 foiz), Belarus(4,4 foiz) va Eron (6,0 foiz) Islom Respublikalari hisoblanadi.




Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Tashqi savdo

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 43,6 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 137,4 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129,7 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 23,2 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 87,8 foizni, sabzavotlar 65,5 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 183,6 foizni), **uzum 42,1 ming tonnani (101,2 foizni)**, **yer yong'oq 6,1 ming tonnani (5,7 martani)**, qovun va tarvuz **470,2** tonnani (41,8 foizni) tashkil qildi.